



“O‘zbektelekom” AKning Internetga keng polosali ulanish va mobil aloqa xizmatlari abonentlari uchun “Ko‘proq xizmat - ko‘proq foyda” aksiyasini o‘tkazish shartlari

1. Ushbu shartlar “Ko‘proq xizmat - ko‘proq foyda” aksiyasini (keyingi o‘rinlarda - “Aksiya”) o‘tkazish va unda ishtirok etish tartibini belgilaydi.
2. Aksiyaning amal qilish muddati 2023-yil 5-iyuldan 2023-yil 31-dekabrgacha.
3. Aksiyada yuridik shaxslar, shuningdek, fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchisi bo‘lgan, yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik yoki boshqa faoliyatni amalga oshiruvchi shaxslar (keyingi o‘rinlarda - Abonentlar) ishtirok etishi mumkin.
4. Aksiya “O‘zbektelekom” AK (keyingi o‘rinlarda – Kompaniya)ning korporativ mobil aloqa xizmatlaridan foydalanuvchi abonentlari uchun “U2B”, “Corporate” yoki “Business Unlim” seriyali tarif rejaları bo‘yicha Internet xizmatlariga yangi ulanishda amal qiladi.
5. Aksiya doirasida abonentlarga quyidagi jadvalga muvofiq foydalanilayotgan tarif rejaga nisbatan tezligi bir pog‘onaga oshirilgan Internetga ulanish xizmatlaridan foydalanish imkoniyati beriladi:

T/r	Ulanilgan tarif rejasi	Internetga kirish tezligi, Mbit/s 01:00 dan 19:00 gacha / 19:00 dan 01:00 gacha		“Uz-IX”, “TAS-IX” tarmoqlariga kirish tezligi, Mbit/s		Bir pog‘ona yuqori bo‘lgan tarif rejalarning shartlari
		Standart, tarif rejasiga muvofiq	Aksiya doirasida oshirilgan	Standart, tarif rejasiga muvofiq	Aksiya doirasida oshirilgan	
1	U2B-1	6/2	10/3	100	100	U2B-2, Internet tezligi 10/3 Mbit / s, Uz-IX/TAS-IX tezligi - 100 Mbit/s
2	U2B-2	10/3	20/6	100	100	U2B-3, Internet tezligi 20/6 Mbit / s, Uz-IX/TAS-IX tezligi - 100 Mbit/s
3	U2B-3	20/6	40/12	100	100	U2B-4, Internet tezligi 40/12 Mbit / s, Uz-IX/TAS-IX tezligi - 100 Mbit/s
4	U2B-4	40/12	60/20	100	100	U2B-5, Internet tezligi 60/20 Mbit / s, Uz-IX/TAS-IX tezligi - 100 Mbit/s
5	U2B-5	60/20	100/50	100	100	U2B-6, Internet tezligi 100/50 Mbit / s, Uz-IX/TAS-IX tezligi - 100 Mbit/s
6	U2B-6	100/50	300/150	100	300	U2B-300, Internet tezligi 300/150 Mbit / s, Uz-IX/TAS-IX tezligi - 300 Mbit/s
7	U2B-300	300/150	500/300	300	500	U2B-500, Internet tezligi 500/300 Mbit / s, Uz-IX/TAS-IX tezligi - 500 Mbit/s
8	U2B-500	500/300	1000	1000	1000	U2B-1000, Internet tezligi 1000 Mbit / s, Uz-IX/TAS-IX tezligi - 1000 Mbit/s

T/r	Ulanilgan tarif rejasi	Internetga kirish tezligi, Mbit/s 00:00 dan 19:00 gacha/ 19:00 dan 00:00 gacha		“Uz-IX”, “TAS-IX” tarmoqlariga kirish tezligi, Mbit/s		Bir pog‘ona yuqori bo‘lgan tarif rejalarning shartlari
		Standart, tarif rejasiga muvofiq	Aksiya doirasida oshirilgan	Standart, tarif rejasiga muvofiq	Aksiya doirasida oshirilgan	
1	Corporate-1	4/1	6/1.5	4	6	Corporate-2, Internet tezligi 6/1,5 Mbit/s, Uz-IX/TAS-IX tezligi - 6 Mbit/s
2	Corporate-2	6/1.5	10/2.5	6	10	Corporate-3, Internet tezligi 10/2,5 Mbit/s, Uz-IX/TAS-IX tezligi - 10 Mbit/s
3	Corporate-3	10/2.5	20/5	10	20	Corporate-4, Internet tezligi 20/5 Mbit / s, Uz-IX/TAS-IX tezligi - 20 Mbit/s
4	Corporate-4	20/5	40/10	20	40	Corporate-5, Internet tezligi 40/10 Mbit / s, Uz-IX/TAS-IX tezligi - 40 Mbit/s
5	Corporate-5	40/10	100/25	40	100	Corporate-7, Internet tezligi 100/25 Mbit / s, Uz-IX/TAS-IX tezligi - 100 Mbit/s

T/r	Ulanilgan tarif rejasi	Tarif rejasiga muvofiq Internet, "Uz-IX", "TAS-IX" ga ulanishning standart tezligi, Mbit/s	Aksiya doirasida taqdim etilayotgan Internet, "Uz-IX", "TAS-IX" ga ulanish tezligi, Mbit/s	Bir pog'ona yuqori bo'lgan tarif rejalarining shartlari
1	Business Unlim-7	7	10	Business Unlim-10, Internet/Uz-IX/TAS-IX tezligi - 10 Mbit/s
2	Business Unlim-10	10	20	Business Unlim-20, Internet/Uz-IX/TAS-IX tezligi - 20 Mbit/s
3	Business Unlim-20	20	30	Business Unlim-30, Internet/Uz-IX/TAS-IX tezligi - 30 Mbit/s
4	Business Unlim-30	30	40	Business Unlim-40, Internet/Uz-IX/TAS-IX tezligi - 40 Mbit/s
5	Business Unlim-40	40	60	Business Unlim-60, Internet/Uz-IX/TAS-IX tezligi - 60 Mbit/s
6	Business Unlim-60	60	100	Business Unlim-100, Internet/Uz-IX/TAS-IX tezligi - 100 Mbit/s
7	Business Unlim-100	100	150	Business Unlim-100, Internet/Uz-IX/TAS-IX tezligi - 150 Mbit/s

6. Abonentning Aksiyada ishtirok etishi davrida abonent to'lovini o'z vaqtida to'lashi majburiy shart hisoblanadi. Aksiya bo'yicha xizmatlar faollashtirilgan vaqtdan boshlab ulangan telekommunikatsiya xizmatlari ushbu shartlarning 9-bandida belgilangan muddatda faol holatda bo'lishi kerak.

7. Aksiya bo'yicha xizmatlarga ulanish Abonentning Internet xizmatlarini ulash texnologiyasiga qarab, texnik imkoniyat mavjud bo'lganda taqdim etiladi.

8. Texnologik cheklovlar tufayli Internet, Uz-IX va TAS-IX tarmoqlariga ulanish tezligini oshirish uchun paketlarni ulagan abonentlarni Aksiya doirasida xizmatlarga ulash amalga oshirilmaydi.

9. Mazkur shartlarning 4-, 6-, 7- va 8-bandlarida belgilangan mezonlarni hisobga olgan holda, Abonentlarga Aksiya bo'yicha xizmatlar yoqilgan kundan boshlab, 3 oy mobaynida 5-bandda belgilangan shartlarda Internetga ulanish xizmatlari taqdim etiladi.

10. Aksiyada faqat bir marta ishtirok etish mumkin, agar qayta faollashtirishga urinish bo'lsa, xizmatlar amaldagi tariflar bo'yicha taqdim etiladi.

11. Agar Aksiyada ishtirok etuvchi abonent o'z tarif rejasini amal qilish muddati tugagunga qadar (3 oy) o'zgartirmoqchi bo'lsa, bunday holda Aksiyada ishtirok etish muddatdan oldin to'xtatiladi va Internetga ulanish tezligi tasdiqlangan tariflar bo'yicha taqdim etiladi. Bunda, moliyaviy yoki ixtiyoriy blokirovka qilinganda, xizmatning amal qilish muddati uzaytirilmaydi.

12. Aksiyada ishtirok etish orqali Abonent o'tkazilayotgan Aksiya shartlari bilan roziligini tasdiqlaydi, shuningdek, Kompaniyaning rasmiy veb-saytida Aksiya shartlariga kiritilgan o'zgartirishlar bilan kelgusida mustaqil ravishda tanishishga roziligini bildiradi.

13. Kompaniya kiritilayotgan o'zgarishlar to'g'risida tegishli ma'lumotlarni oldindan rasmiy veb-saytga joylashtirish orqali Aksiya shartlariga bir tomonlama o'zgartirishlar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi.